## 22. Sonlarni ayirish (33 – 7)

Yondosh mavzu:
Maktab

Xonadan o‘tib ayirish.






**1.** Ifoda tuzing.
Elektron kundalikka 33 nafar o‘quvchi topshiriqni bajarib jo‘natdi. O‘qituvchi 7 ta javobni tekshirdi. Yana nechta ishni tekshirishi kerak?

**2.** Yechishni tushuntiring.





**3 o‘nl. 3 birl. – 7 birl. =**
**= 2 o‘nl. 13 birl. – 7 birl. = 2 o‘nl. 6 birl.**

**3.** Misollarni grafik ko‘rinishda yeching.

65 – 8 34 – 6 51 – 3 42 – 6

**4.** Tenglamalarni yeching.

42 – $y$ = 7 $t$ + 6 = 25 $a$ – 6 = 34

**5.** Taqqoslang.

63 – 7 ☐ 48 + 8 25 + 9 ☐ 45 – 7 31 + 9 ☐ 26 + 4

CHOP ETISH UCHUN EMAS

**6.** Sinfda 31 nafar o‘quvchi bor. Diagramma asosida savollar tuzing va ularni sinfdoshlaringizga bering.




**7.** Masalani 6-topshiriqda berilgan ma’lumotlar asosida yeching.
I chorakda musiqa fanidan a’lochilar ona tili faniga qaraganda 6 nafar ko‘p, ingliz tili fanidan 9 nafar kam bo‘ldi. I chorakda musiqa va ingliz tili fanidan necha nafar a’lochi bo‘lgan?

**8.** Ifodalarni daftaringizga yozing va ularni hisoblang.

| *a* | 5 | 12 | 21 | 92 | 61 | 73 | 44 | 81 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| *a* – 5 | | | | | | | | |

**9.** Sinfda 31 nafar o‘quvchi bor. Nazorat ishidan 7 nafar o‘quvchi “a’lo” baho, 2 nafar o‘quvchi “qoniqarli” baho, qolgan o‘quvchilar “yaxshi” baho oldi. Necha nafar o‘quvchi “yaxshi” baho oldi?

CHOP ETISH UCHUN EMAS